

Barkamol avlodni tarbiyalashda maktab, oila va mahallaning hamkorligi

Muhiddin Murodov
Qarshi DU o'qituvchisi

Insoniyat tarixida oilaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi, uning etnopedagogikasi va etnopsixologiyasi-mohiyatini davr talabi nuqtai nazaridan chuqur o'rganish, ilg'or g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish, oila farovonligi va baraqarorligini ta'minlash uchun zamindir. Prezidentimiz I.A.Karimov "Oila – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i..." ekanligini ta'kidlaydilar.

Bu qo'rg'onni mustahkamligi ota-onaning oiladagi bir-biriga bo'lgan munosabatlari, bir-biriga bo'lgan ishonchi, ular o'rtasidagi hurmat va e'tibor, farzandlari tarbiyasiga befarqlik bilan qaramaslik kabi omillarga bog'liq.

Farzand tarbiyasida ota-onaning vazifasini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Otaning vazifasi avvalo oilasiga ustun bo'lishi, oilada tartib intizom o'rnatish va asosiysi farzandlar tarbiyasiga befarq bo'lmasligidir.

Oilada onaning o'rnini ham katta ahamiyatga ega. Chunki u jamiyatimizga barkamol avlodni tarbiyalashga katta hissa qo'shadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejizga aytilmagan. Oilada farzandni o'sishi yaxshi tarbiya topishi, komil inson bo'lib yetishi kelajakda xalq manfaati uchun hissa qo'shishi bevosita ota-ona tarbiyasiga bog'liq.

Bola yoshlik davrida oilada qolaversa mahalla, maktabda olgan ta'lim tarbiyasini butub umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotining asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi.

Ota-ona bolalar nigohida eng buyuk kishilardir shuning uchun ular farzandlari oldida eng yaxsh jihatlar bilan obro' qozonishi kerak. Bolalarni barkamaol inson qilib yetishishida maktabni oila bilan bog'lash muvaffaqiyat

kalitidir. Shuning uchun maktab va ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni kengaytirish lozim. Bola matabga borib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, doimo farzandi haqida malumotga ega bo'lishi, o'z navbatida bolaning atrofidagi do'stlari haqida ham malumotga ega bo'lishi kerak. Ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan tarbiya sohasida hamkorlik qilishlari juda muhimdir. Bu ishlar oilada farzand tarbiyasiga salmoqli hissa qo'shadi. Komil farzand tarbiyalash ishi esa oila, maktab va mahallaning hamkorligini talab qiladi.

Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona"- degan naql bor. Mahalla – azaldan xalqimizda tarbiya maskani hisoblanadi. Ko'chada besamar yurgan bola bormi uni albatta qo'ni-qo'shnilar, mahalla so'rab-surishtirib tursa qanchadan-qancha jinoyatchilikning oldi olingan bo'ladi.

Afsus bilan aytish lozimki, hozirgi kunda farzand tarbiyasiga loqaydlik bilan qarayotgan ota-onalarni ham uchratishimiz mumkin. Buning natijasida jamiyatimizga zarar keltiruvchi, xalq uchun foydasi tegmaydigan, o'z ona tuprog'ini qadriga yetmaydigan yoshlar yetishib chiqmoqda. Bular jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Ota-onalarimizning befarqligi yoshlarimiz o'rtasida giyohvandlik, bezorilik, axloq chegarasiga to'g'ri kelmaydigan ishlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Shunday yomon illatlarni oldini olish maqsadida ota-onalar, maktab jamoasi va mahalla hamkorlikda o'z farzandlarining bo'sh vaqtlarini foydali ishlar bilan band bo'lishini uchun turli xildagi to'garaklarga jalb qilishlari lozim.

Musika – yuksak tarbiya manbai hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan chora tadbirlari" to'g'risidagi farmoyishi¹, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda musiqaning o'rni beqiyosligini tasdiqlaydi. Yoshlarni musiqa bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, bunda maktab, oila va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish dolzarb muommolardan biridir.

¹ "Халқ сўзи" рўзномаси Т. 8.01. 2008 -йил 4- бет

Agarda, maktablarning musiqa madaniyati fani o'qituvchilari maktab atrofidagi mahallalar bilan hamkorlikda o'z ishini rejali yo'lga qo'yishi muommolar echimi bo'lishi mumkin. Nega deganda, ko'pchilik bolalar maktabdan so'ng asosan bo'sh vaqtlarini ko'chada besamar o'tkazadilar.

Maktab o'quvchilarining darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini sermazmun o'tkazish maqsadida musiqa madaniyati fani o'qituvchisi musiqa to'garagi bo'yicha o'tkazishi lozim bo'lgan mashg'ulotlarni, rahbariyat bilan kelishgan holda, maktab atrofidagi mahallalar go'zarlarining hovlisida haftaning ma'lum kunlari darsdan keyin va ta'til davrida o'tkazishi yaxshi natija berishi mumkin.

Tajriba tariqasida Qarshi shahridagi 4- maktabning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi Bahodir Sevarov va Samarqand mahallasi raisasi T. Shomurodova bilan hamkorlikda bolalarning darsdan bo'sh vaqtlarini sermazmun tashkil qilish maqsadida 2012 yil yanvar- mart oylari to'garak mashg'ulotlari tashkil etildi.

To'garak mashg'ulotlariga mahallaning Samarqand, Rudakiy, Degrez, Buxoro, Yo'limshayx ko'chalaridan 30 dan ortiq maktab o'quvchilari jalb qilindi.

To'garak a'zolariga ona Vatanni ulug'lovchi qo'shiq hamda milliy raqslar o'rgatildi. Tajriba ancha yaxshi natijalar berdi, natijada ota-onalar o'z farzandlarining san'at bilan shug'ullanayotganligini ko'rib xursand bo'lishdi.

Mahallada o'tkazilgan 8-mart va "Navro'zi olam" tadbirlarida to'garak a'zolari o'z konsert dasturlari bilan barchani xursand etishdi. Musiqa va san'at maktabiga o'qiydigan 4-maktabning mahallada yashaydigan o'quvchilari o'z repertuarlaridan yig'ilganlarga kuy-qo'shiqlarni ijro etib berishlari ham bayramga o'zgacha tarovat bag'ishladi.

Agar shahardagi barcha mahallalarda yuqoridagidek to'garaklar maktablar bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilsa bu o'z samarasini beradi albatta.

Xulosa qilib aytish mumkinki bola bamisoli bir nihol, unga qanchalik yaxshi e'tibor berib, o'z vaqtida parvarish qilsak, yomon tashqi tasirlardan himoya qila olsak, u kelajakda shunchalik ko'p va sifatli hosil beradi.